



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education.....	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?.....	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida.....	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari.....	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi.....	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	



TARBIYA TEXNOLOGIYASI – TALABALARDA ILMIY VA SINERGETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar” kafedra dotsenti, p.f.d. (DSc)

Annotatsiya: Maqolada tarbiya texnologiyasining talaba-o‘quvchilarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish, ta’lim taraqqiyotining asosi ekanligini ilmiy jihatdan ta’kidlaydi va u yondashuvning qiyosiy tavsifini tasvirlaydi, yo’naltirilgan shaxs va noan’anaviy ta’lim usullari o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash samaradorligini oshirish va ularning rivojlanishi uchun darslarda tez-tez ishlatiladi, “tarbiya texnologiyasi, ilmiy va sinergetik dunyoqarash” atamasi mohiyatining afzalliklari, bolaning rivojlanish darajalarining ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, dars, texnologiya, o‘qitish, sinergetika, umumiy ta’lim maqsadi, tarbiyaviy maqsad, ilmiy dunyoqarash, fikrlash va madaniyat, amaliy maqsad.

Abstract: The article scientifically emphasizes that educational technology is the basis of educational development, the formation of a scientific and synergistic worldview in students, and describes a comparative description of the approach, the use of individual-oriented and non-traditional educational methods in lessons to increase the effectiveness of students’ logical thinking and their development, the advantages of the essence of the term “educational technology, scientific and synergistic worldview”, the scientific basis of the child’s development levels.

Key words: education, lesson, technology, teaching, synergy, general educational goal, educational goal, scientific worldview, thinking and culture, practical goal.

Аннотация: В статье научно подчеркивается, что образовательные технологии являются основой образовательного развития, формирования научного и синергетического мировоззрения у учащихся, и приводится сравнительное описание подхода, использования индивидуало-ориентированных и нетрадиционных методов обучения на уроках для повышения эффективности логического мышления учащихся и его развития, преимущества сущности термина “образовательные технологии, научное и синергетическое мировоззрение”, научная основа уровней развития ребенка.

Ключевые слова: образование, урок, технология, обучение, синергия, общая образовательная цель, образовательная цель, научное мировоззрение, мышление и культура, практическая цель.

KIRISH

Mazkur maqolaning maqsadi talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirishga yo’naltirilgan tarbiyaviy mashg’ulotlarni tizimli va modulli yondashuv asosida loyihalashtirish, ularning mustaqil hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, barkamol shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiya amaliyotiga samarali tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish masalasi pedagogika va falsafa fanlarida muhim yo’nalishlardan biri sifatida o’rganilgan. Tizimli yondashuvning dastlabki g’oyalari Zenon, Platon, Mark Avreliy Antonin kabi qadimgi mutafakkirlar qarashlarida uchrasa, Sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino va Jaloliddin Rumiy asarlarida borliqdagi hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda M. Tojiyev, G. Izetayeva, G. Opayeva va B. Ziyomuhammedov tomonidan tizimli hamda majmual yondashuvning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Mazkur ilmiy qarashlar tarbiya texnologiyalarini modulli tashkil etish orqali talabalarda ilmiy, tizimli va sinergetik dunyoqarashni rivojlantirish uchun nazariy-metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimlar nazariyasi, sinergetika, modulli o'qitish texnologiyasi, barkamol shaxs tarbiyasiga oid falsafiy-pedagogik qarashlar, Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi hamda zamonaviy pedagogik manbalardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, pedagogik loyihalash, modellash, kuzatish, muammoli munozara, FSMU usuli, savol-javob va test nazorati metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy mashg'ulotning modulli modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelda mashg'ulot mazmuni katta, o'rta va kichik modullarga ajratilib, ularning maqsadlari, tayanch tushunchalari, nazorat savollari, pedagogik usullari, axborot texnologiyalari va baholash vositalari belgilandi. Modelning qo'llanilishi talabalarning barkamollik fazilatlarini o'rta va kichik o'zaro aloqadorlikni anglashiga, mustaqil va mantiqiy xulosa chiqarishiga, tizimli fikrlashiga hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tarbiya amaliyotida qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Ta'lim-tarbiya inson faolligini belgilaydigan muhim bir tarmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta'lim-tarbiya tizimida inson faoliyati bilan bog'liq ko'pgina muammolarni hal etish kunning dolzarb masalalaridan biridir. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu vazifalarni ilmiy-texnika jarayonining o'zgarishi bilan bog'liq ta'lim va tarbiyaning yangi nazariyasini yaratish, ya'ni fanni jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylantirish va amaliy ko'rsatkichlarini rivojlantirish natijasida amalga oshirish mumkin.

Muammoning qo'yilishi

Talabaga ta'lim va tarbiya berishdan maqsad quyidagilardan iborat. Xususan:

a) Talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish.

Bu g'oya dunyoni bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi.

b) Talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va uni yanada rivojlantirish.

O'quv mashg'ulotlarida talabalar dastlabki darslardan oqib mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ular bunga o'z kuzatishlari va shu kuzatishlari orqali mantiqiy tafakkur qilishga o'rganish natijasida xulosa chiqaradilar. Chiqarilgan barcha xulosalar ilmiy va sinergetik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

O'qituvchining vazifasi talabalarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan bir vaqtda ularda ilmiy va sinergetik qonuniyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

v) Talabalarda tafakkur, tasavvur va madaniyatni shakllantirish.

O'quv mashg'ulotlarida o'rganiladigan har bir xulosa juda ko'p tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi hamda u qat'iylikni talab qiladi. Talabalarda mazkur qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganish jarayonida mantiqiy tafakkur qilish rivojlanadi va xulosa chiqarish madaniyati shakllanadi. Talabalarda tafakkur, tasavvur va madaniyatni shakllantirishda biror ilmiy va sinergetik qonuniyatni ifoda etadigan fikrlarni simvolik ravishda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha, simvolik ravishda ifoda qilingan qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish muhim o'rin tutadi.

g) Talabalarda tizim (sistema)lar nazariyasi va undan kelib chiquvchi obyektiv borliqqa sistema (majmui)li yondashuv asosida qarashni tarbiyalash.

Har bir ishda tizimlar nazariyasidan kelib chiqish, birinchidan, ishni bir necha o'n barobar osonlashtiradi, ba'zi murakkab ishlarda, masalan, kibernetikada, zamonaviy aloqa tizimi va kosmonavtikada majmular nazariyasini egallamay turib, o'sha ishni bajarib ham bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayoni ham o'ta murakkab bo'lganligi tufayli, tizimlar nazariyasidan foydalanmay turib, uni zamonaviy tarzda amalga oshirib bo'lmaydi; ikkinchidan, har qanday faoliyatni to'g'ri amalga oshirish garovi bo'lib xizmat qiladi; uchinchidan, muayyan narsa va hodisani boshqalarga tushuntirishni osonlashtiradi hamda beriladigan bilimni tez tushuntirib, tez o'zlashtirib, esda uzoq



saqlab turishga xizmat qiladi. Chunki inson ongi va tafakkuri uning tarixiy rivojlanishi jarayonida tizimlar nazariyasi qonuniyatlariga mos ravishda shakllangan. Aslida, majmular nazariyasi inson ongining tabiiy faoliyatidan olingan. Bekorga uni organik usbul deyilmagan ^[24].

Muammo bo'yicha adabiyotlar tahlili

Birinchi bor butun borliq katta va kichik majmulardan iborat degan fikrni italiyalik faylasuf Zenon (m. avv. 490-430) aytib ketgan. U aytadiki, butun narsa bo'lingach, ko'plab birliklarga ega bo'lamiz. Bu birliklarning har biri, o'z navbatida, birliklarga bo'linadi. Bu jarayon cheksiz davom etaveradi ^[28]. Shu fikrga yaqin fikrni qadimgi yunon faylasufi Mark Avreliy Antonin ham aytgan: "Hamma narsa bir-biriga chatishib ketgan. Hamma yerda ilohiy uzviylik mavjud. Barcha narsalar umumiy tartib-qoidalar asosida birlashib, aynan bir olamni bezashga xizmat qiladi" ^[28]. Bu ikki alloma fikrlaridan butun dunyo cheksiz ko'p, o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan butunlik, ya'ni tizimlardan tashkil topganini anglasa bo'ladi.

Yondashuvning qadimgi ilm-fan va falsafada mavjud ekanligini ham ko'rsa bo'ladi. Butun borliq qandaydir o'zaro bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini Platon, Forobiy, Ibn Sino va boshqa allomalar fikrlarida ham ko'rish mumkin. Mavlono Jaloliddin Rumiy ham olamning zarradan koinot qadar o'zaro vobastaligi, bir-biri bilan tortilib turishi haqida aytgan. Biroq olamni ixtiyoriy, goho noto'g'ri anglashimiz natijasida tabiatdan berilgan majmu yondashuv tafakkuridan ajralib qolganmiz. O'zligimizga, ya'ni tabiiy mohiyatimizga qaytish uchun majmular nazariyasini o'rganishimiz shart.

Shuningdek, ushbu muammoni hal qilishda M. Tojiyev ^[32, 35], G. Izetayeva ^[56], G. Opayeva ^[72], B. Ziyomammedov ^[22, 33] va boshqalarning ilmiy-tadqiqot va o'quv-uslubiy ishlarini ko'rish mumkin.

Talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy mashg'ulot loyihasining modelini beramiz.

Muammoning yechimi

Jarayonni loyihalash algoritmi. Modul - innovatsion tarbiya texnologiyasini tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifoda etuvchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik modullardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha shunday modulni olishiga qarab o'rta va katta modullar deb ataladi. Modulli o'qitish texnologiyasi majmuli yondashuvni ifodalaydi.

Loyiha tuzish bosqichlari va bajariladigan amallar

Tarbiya o'quv mashg'ulotini bir butun deb qarab, mazmun va hajmi jihatidan katta va o'rta modullarga ajratish hamda katta modullar maqsadlarini belgilaymiz, katta modul tarkibidagi o'rta modullarning mavzulari va maqsadlarini belgilaymiz, o'rta modullarning maqsadlarini amalga oshirishidan paydo bo'ladigan ko'nikmalarining fe'llar shaklidagi majmuisini tuzib chiqamiz, o'rta modul tarkibida kichik modullarni ajratish, maqsadlarini aniqlash va ularga ajratilgan vaqtni belgilaymiz, kichik modullardagi tayanch tushunchalar va nazorat savollarini aniqlab olamiz, kichik modullarda qo'llaniladigan mashg'ulot turi, tipi hamda qo'llaniladigan tarbiya usul va uslublarini aniqlab, ishlatiladigan joylarini belgilaymiz va tarbiya jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar va boshqa didaktik materiallar zaxirasi ichidan muayyan kichik modullarda foydalaniladiganlarini topib, qo'llanish joylarini aniqlash hamda o'rta modul mazmuni va tarbiya jarayonining borishini ifoda etuvchi yo'naltirilgan matnning ssenariysi yoziladi.

Talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy mashg'ulot loyihasining modeli

I. BIRINCHI MODUL: "O'zbekiston xalqiga xos barkamollik fazilatlarini sinergetik dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida va ularning o'zaro aloqadorligi"

1.1. Modulning maqsadi

Talaba insonga eng zarur bo'lgan ijtimoiy sifatlarni biladi, uning elementlar: imon va e'tiqodli, aqlli, odob va axloqli, bilimli, mehnatsevar, sog'lom, milliy g'ururi bor, vatanparvar, baynalmilal, insonparvar, jasur, sabr-qanoatli va saxovatli kabi tushunchalarni tushunadi, O'zbekiston xalqiga xos barkamollik fazilatlarini sinergetika dunyoqarashning tarkibiy qismi ekanligini tasavvur qiladi va ular orasidagi o'zaro aloqadorlik borligini tushunib, ularni tarbiya amaliyotida qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi.

Izoh. Maqolaning hajmini hisobga olgan holda, faqat birinchi katta modulning mazmuni berildi.



1.2. Modullar nomlari va maqsadlari

№	Kichik modullar nomi	Kichik modullarning maqsadi
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning barkamol avlod fazilatlarini haqidagi fikrlari	Talaba O'zbekistonda 2014-yil – “Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb e'lon qilinib, eng ezgu va eng ulug' maqsadimiz yo'lida yana bir shaxdam qadam tashlanganligini biladi, bundan ko'zlangan maqsad, mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan tushunadi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning barkamol avlod fazilatlarini haqidagi fikr va qarashlarini tahlil qila oladi va ularni tarbiya amaliyotida qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi.
2.	Sharq mutafakkirlari va falsafa hamda pedagogikada barkamol shaxs haqidagi qarashlari	Talaba yozuv paydo bo'lishi bilan insoning xatti-harakat qoidalari jamlanib, muqaddas kitoblar sahifalaridan o'rin olganligini biladi, jahonning ilk muqaddas kitoblaridan “Avesto”da, Qur'oni karimda, Hadislarda, shuningdek, buyuk allomalarimiz Abu Nosr Forobiy barcha fanlarga oid, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniylar, Zakariyo ar-Roziy, Ibn Sino, Jurjoni, Abu Rayhon Beruniylarning asarlarida insonning ma'naviy kamolot mezonini, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, bilimlarning qay darajada egallanganligi ko'rsatilganligini va dinning ta'limot nuqtayi nazardan tushunish kerakligini tushunadi. Ikkinchi yo'nalish – ijtimoiy-falsafiy yo'nalish, bunda falsafa, tarix, mantiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va shunga o'xshash boshqa fanlar bo'lib, bu sohada qomusiy olimlar Al-Kindiy, Abu Mansur as-Sa'ulbiy, Abu Bakr Xorazmiy, Ibn Sino, Abul-Fazl Boyhaqay, Abul Hasan Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshaxiy, Abul-Qosim Zamaxshariy va boshqalar faoliyatini tahlil qila oladi va ularni tarbiya amaliyotida qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi.
3.	O'zbekiston xalqiga xos barkamollik fazilatlarini	Talaba insonga eng zarur bo'lgan ijtimoiy sifatlarini biladi, imon va e'tiqodli, aqlli, odob va axloqli, bilimli, mehnatsevar, sog'lom, milliy g'ururi bor, vatanparvar, baynalmilal, insonparvar, jasur, sabr-qanoatli va saxovatli kabi fazilatlar ekanligi va qolgan ko'pdan – ko'p insoniy sifatlarini tushunadi, bularning unsurlari hisoblanishi hamda insonning ijobiy ijtimoiy sifatlarini sharhini tahlil qila oladi va ularni tarbiya amaliyotida qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi.
4.	Barkamol avlod fazilatlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyani o'rni.	Talaba O'zbekiston xalqiga xos barkamollik fazilatlarini bo'yicha tarbiyaviy o'quv mashg'uloti loyihasini shakllantirish yo'llarini biladi, tarbiyaviy o'quv mashg'uloti loyihasini shakllantirishda sinergetik dunyoqarashning tamoyillari va qonun-qoidalariga rioya qilishni tushunadi, ularni o'zaro aloqadorligini tahlil qila oladi va ularni tarbiya amaliyotida qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi.

1.3. Kichik modullarning tayanch tushunchalari va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

№	Tayanch tushunchalar	Nazorat savollari
1.	Shaxs, ijtimoiy mohiyat, barkamol shaxs, barkamol avlodni tarbiyasi, yuksak ma'naviyat, hazrati inson, komil inson,	1. Barkamol shaxs deganda nimani tushunasiz? 2. Ta'lim jarayonida shaxs qanday rollarni ijro etadi? 3. Kishining ijtimoiy mohiyati deganda nimani tushunasiz? 4. Prezidentimiz o'z asarlarida Ma'naviyat to'g'risida fikrlarini aytib bering? 5. XXI asrda O'zbekistonga mos bo'lgan barkamol avlodning ijtimoiy sifatlar haqidagi Prezident I.Karimov fikrlarini aytib bering? 6. “Bioijtimoiy mavjudot” haqidagi fikringizni sharhlang? 7. Komil inson haqidagi Prezident I.Karimov ta'rifini aytib bering?
2.	“Avesto”, Hadis, “Sunan”, “Fozil odamlar shahri”, “Qobusnoma”, “Bo'ston”, “Tasavvuf”,	1. Jahonning ilk muqaddas kitoblaridan “Avesto”da haqida nimalarni bilasiz? 2. Hadis yozuvchilar soni ko'p bo'lishiga qaramay hadislar ichida eng kuchlisi kim bo'lgan? 3. Imom at-Termiziyning “Sunan” kitobida nimalar yoritilgan? 4. Ilm-fan rivojlanishi nechta yo'nalishi bo'lgan? 5. O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy haqida nimalarni bilasiz? 6. Abu Ali ibn Sino barkamollikka erishishning birinchi mezonini nimani nazarda tutgan? 7. “Temur tuzuklari”ning komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini aytib bering?



3	Imon, e'tiqod, aql, odob, axloq, bilim, mehnatsevar, sog'lom, milliy g'urur, vatanparvar, baynalmilal, insonparvar, jasur, sabr-qanoat va saxovat	1. Har bir inson aqlli, axloqli, bilimdon, oqil, dono, sofdil, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, kamtar, mard va jasur bo'lmog'i lozimligini qaysi alloma tomonidan aytib ketgan? 2. Hikmat va vahdat ahillar kimlar? 3. Imoni mukammal odam deganda kimni tushunasiz? 4. Islomni faqat shariatmi, uni ta'limot sifatida qabul qilish mumkinmi? 5. Aql va bilim deganda nimani tushunasiz? 6. Mutlaqo sog' kishi deb kimlarni hisoblash mumkin? 7. Millat deganda deganda nimani tushunasiz?
4.	Nazariya, sistemalar nazariyasi, majmua, majmu, kvant nazariyasi, sinergetika, zamonaviy dars, loyiha	1. Sistemalar nazariyasini tushuntirib bering? 2. "Majmua" va "Majmu" tushunchalari farqini aytib bering. 3. Majmui turlari, tamoyillarini sanab bering, ularni sharhlang. 4. Majmui tushunchasini ta'lim jarayoniga nisbatan qo'llang. 5. "Kvant nazariyasi" va "Sinergetika"ning mohiyatini aytib bering. 6. Har bir ishda majmuilar nazariyasidan kelib chiqish qanday natija beradi? Ta'lim jarayonida darsning o'rnini izohlang. 7. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?

Izoh. Kichik modullardagi nazorat savollaridan talabalar mustaqil ta'limida ham foydalanadilar.

1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test

No	Savollar	Mumkin bo'lgan javoblar	To'g'ri javob
1.	Mustaqil O'zbekiston ta'lim sohasida islohotlarni boshlab yuborilganligi-ning asosiy sababi nima?	1. Rivojlangan mamlakatlardan andoza olingani. 2. Texnik taraqqiyot natijasida o'quv vositalarni takomillashtirilgani. 3. Kadrlar sifatiga qo'yiladigan talablarning o'zgarganligi. 4. Davlat ta'lim standartlari qabul qilingani.	3
2.	Ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi?	1. Davlat va jamiyat 2. Ta'lim tizimi 3. Shaxs 4. Uzlaksiz ta'lim	4
3.	Pedagogik texnologiyada shaxs ta'lim jarayonida nimaga aylanadi?	1. Ta'lim jarayonining obyekti 2. Ta'lim jarayonining obyekti va subyekti 3. Ta'lim jarayonining subyekti 4. Ta'lim jarayonining subyekti va obyekti	
4.	Kishining ijtimoiy mohiyati deganda nimani tushunasiz?	1. Insonga ato etilgan aql va dilning koinot – olamga bog'liqligi, uning shaxsiy hayoti davomida orttirgan ma'naviyatining murakkab majmui tushuniladi. 2. Insonga ato etilgan aql va dilning (olami sug'ro-kichik olamning) kosmos, koinot – olamga bog'liqligi, uning shaxsiy hayoti davomida orttirgan bilimi, ko'nikma, malaka va ma'naviyatining murakkab majmasi tushuniladi. 3. Insonga ato etilgan aql va dilning (olami sug'ro-kichik olamning) kosmos, koinot – olamga bog'liqligi, uning shaxsiy hayoti davomida orttirgan bilimi, ko'nikma, malaka va ma'naviyatining murakkab majmui tushuniladi. 4. Insonga ato etilgan aql va dilning koinot – olamga bog'liqligi, uning shaxsiy hayoti davomida orttirgan ma'naviyatining murakkab majmasi tushuniladi.	3
5.	Insonning ilmiy atamasi qanday aytiladi?	1. Bioijtimoiy mavjudot 2. "Biosotsium" 3. "Homo-sapiyens" – "Aqlli jonzo" 4. "Biosotsium" - "Aqlli jonzo"	2



6.	Prezidentimiz o'z asarlarida Ma'naviyat to'g'risidagi ta'rifi?	1	“...ma'naviyat – insonni iymon-e'tiqodini butun qiladigan, ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, irodasini baquvvat, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”	1
		2	“...ma'naviyat – inson hayoti davomida orttirgan foydali bilimlarini amalda qo'llayverishi natijasida, unda hosil bo'lgan ko'nikma va malakalar takomillasha borib, uning ruhiga singib hayot tarziga aylanishidir”.	
		3	“...ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”	
		4	“...ma'naviyat – inson hayoti hosil bo'lgan ko'nikma va malakalar takomillasha borib, uning ruhiga singib, orttirgan foydali bilimlarini amalda qo'llayverishi natijasida va unda hayot tarziga aylanishidir”.	
7.	Barkamol shaxs deganda nimani tushunasiz?	1	Foydali bilimlarni ma'lum darajada egallab, ma'naviyatiga aylantirib ulgurgan kishilar barkamol	3
		2	Tangri taoloning odamni yaratishdan ko'zlagan maqsadiga to'liq javob beradigan hamda odamlar doimo orzu qilib kelayotgan ideal shaxsga nisbatan ishlatiladi.	
		3	Barkamol shaxs deganda, har tomonlama rivojlangan, bir qator go'zal fazilatlarga o'rangan hamda muayyan zamon talablariga javob beruvchi inson siymosi tushuniladi.	
		4	Barkamol shaxs deganda, o'z bilimlarini hayotda qo'llayverishi natijasida, maqsadga yo'naltirilgan harakatlari uchun ortiqcha kuch va vaqt sarflamay, ravon amalga oshiradigan inson siymosi tushuniladi.	
8.	“Fozil odamlar shahri” asar kim tomondan yozilgan?	1.	Al-Xorazmiy	
		2.	Abu Rayhon Muhammad ibn al – Beruniy	
		3.	Abu Nasr Forobiy	
		4.	Abu Ali ibn Sinodir	
9.	“Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi”, degan hikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zi bunga amal qilishga intilgan Alloma	1.	Alisher Navoiy	
		2.	Zahiriddin Muhammad Bobur	
		3.	Amir Temur	
		4.	Mahmudxo'ja Behbudiy	
10.	Amur Temur nechta sifatlarga hamma vaqt rioya qilgan	1.	12 ta	
		2.	7 ta	
		3.	11 ta	
		4.	3 ta	
11.	“Tasavvuf” tushunchasiga berilgan ta'rif.	1.	“Tasavvuf – nafs manzillarini bosib o'tishdir”	
		2.	“Tasavvuf – Xudo yo'lida nafsdan kechmoqdir”.	
		3.	Uchtasi ham to'g'ri	
		4.	“Tasavvuf – nafs lazzatlaridan voz kechishdir”.	

1.5. Kichik modullarning mashg'ulot turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublar

O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, dialogli, ko'rgazmali, muammoli ma'ruza
O'quv mashg'ulotining turi va tipi	Aralash dars; egallash bilimni ko'nikmaga aylantirish
Qo'llaniladigan usul va uslublar	Tushuntirish; aytib berish; illyustratsiya; FSMU; muammoli munozara; ko'rgazmali, muammoli ma'ruza, test.
Ta'lim vositalari	PowerPoint dasturida ishlangan taqdimot, FYOTV (fikrlarni yozish va taqdim etish uchun vositalar).



Ta'lim shakllari	Yakka holda, jamoaviy, ommaviy.
O'qitish sharoitlari	Multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	FSMU usuli bo'yicha yozma ishlar, kuzatish, munozaralar davomida beriladigan javoblar, test.

1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni

O'qitishning texnik vositalari	Didaktik materiallar
Birinchi, ikkinchi va uchinchi kichik modullar davomida mavzuga mos slaydlar namoyish qilinadi. Shuningdek, nazorat savollari va shu savollar asosida tuzilgan test slaydlar orqali namoyish qilinadi.	Pedagogik texnologiyaga oid darsliklar, uslubiy qo'llanmalar va ko'rsatmali qurollar

1.7. Mavzular mazmunini ifoda etuvchi MATN ssenariysi beriladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirishda tizimli, modulli va texnologik yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Tarbiyaviy mashg'ulotlarni aniq maqsadlar, tayanch tushunchalar, interfaol metodlar, didaktik vositalar va nazorat mezonlari asosida loyihalashtirish talabalarning tafakkuri, tasavvuri, ma'naviy madaniyati va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shu bois taklif etilgan modeldan oliy ta'limdagi tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etish va takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Tojiyev M., Mamadaliyev K. O'qitish texnologiyasi va loyihalashtirish // O'quv va ilmiy-uslubiy qo'llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2013. -160 b.
- Ziyomuhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya - Zamonaviy o'zbek milliy modeli. T.: "Lider Press", 2009.
- Mamadaliyev K.R. Oliy ta'lim muassasalaridagi fanlarni o'qitishning metodik sistemasini ishlab chiqish va ta'lim jarayonlariga tadbqiq etish metodikasi // Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali. ISSN 2181-7324. - Toshkent, 2023. - № 6. B. 143-145.
- Mamadaliyev K.R. "Informatika o'qitish jarayonini loyihalashtirish" o'quv fanining o'quv-metodik majmuasini loyihalashtirish asosida takomillashtirish // O'zMU xabarlar jurnali. ISSN 2181-7839. - Toshkent, 2023. - № 1.8.1. B. 143-145.
- Mamadaliyev K.R. Pedagogika ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv adabiyotlarini yangi avlodini ta'lim jarayoniga tadbqiq etish metodikasi // O'zMU xabarlar jurnali. ISSN 2181-7839. - Toshkent, 2023. - № 1.9.1. B. 146-148.
- Mamadaliyev K.R. Elektron o'quv-metodik majmualarni yaratish metodikasi // O'zMU xabarlar jurnali. ISSN 2181-7839. - Toshkent, 2023. - № 1.11. B. 127-129.
- Mamadaliyev K.R. Pedagogika ta'lim yo'nalishlarini yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda o'quv jarayoni loyihalarini tuzish // Mug'allim ham yzlik siz bilimlendirio'. Ilimiy-metodikalyq jurnal. ISSN 2181-7138. - Nekis, 2024. - № 1. B. 300-309.
- Mamadaliyev K.R. Elektron o'quv qo'llanmalar yaratishning asosiy vositalari va ularni yaratishga qo'yiladigan umumiy talablar // Mug'allim ham yzlik siz bilimlendirio'. Ilimiy-metodikalyq jurnal. ISSN 2181-7138. - Nekis, 2025. - № 1. B. 248-256.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.